

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI O'QUVCHILARIGA MUSIQIY QOBILIYATINI BILISHNING ILK BOSQICHLARI METODLAR

Majidova Shaxnoza Kamariddinovna

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 1-bosqich magistri

Anotatsiya: *Maqlolada bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga musiqiy qobiliyatini shakllantirishda yuzaga keladigan muommalar va ularning yechimi to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalitso'zi: *ixtisoslik, fortopiano, ritm, musiqiy idrok, konsert, pedagogik mahorat, ta'lif tizimi.*

Ayni kunda butunjahon ta'lif sohasida har xil metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan talab, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bulardan unumli foydalangan holda dars mobaynida qo'llab, o'quvchilarni dars mashg'ulotini yaxshi va oson o'zlashtirib olishiga muhit yaratib bera olishi zarur. Buning uchun pedagogdan qator sohalarda ilg'orlik talab qilinadi.

Har bir iste'dod egasi o'z xohishi va imkoniyati doirasida tarbiyalanishga va saboq olishga haqli va buning uchun shart-sharoitlar mavjud. Respublikamizda uzlusiz ta'lif tizimining joriy qilinishi va har bir bosqish o'z dastruriga amal qilishi munosib ilmli, kuchli, zukko va iste'dodli barkamol avlod tarbiyalanishining garovi hisoblanadi.

Bolaning badiiy tarbiyasi maxsus bilim talab etuvchi mas'uliyatli va murakkab ish hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa, kuy, ohang uning ruhiy holatini yaxshilashga, uni ezgulikka, go'zallikka intilishiga xizmat qilishi darkor. Aynan bu mas'uliyatli bosqich boshlang'ich ta'lif tizimi doirasida hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lif tizimi muayyan ixtisoslik, ya'ni professional darajadagi mutaxasis tayyorlashning ilk bosqichidir. Bolalarning musiqa san'atiga kirib kelishi va o'z ixtisoslik kasbida ta'lif olishi bu bosqichning muhim omillaridanbiri. O'quvchi bolalik davridan shaxsiy ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishi va bunda muntazam tayyorlanib borishi juda muhimdir. Shu bois, musiqiy ta'lif tizimining boshlang'ich bosqichi bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyati bilan bog'liqdir.1

Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasining muhim yo'nalishi sifatida musiqa san'atiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yurtimizning har bir viloyat va tumanlarida bolalar musiqa va san'at maktablari ochilib, qayta rekonstruksiyadan o'tkazilib foydalishga topshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida" 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2534 son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, bolalar musiqa va san'at maktablari musiqa

cholg'u asboblari, maxsus mebellar va kerakli jihozlar bilan ta'minlanishi belgilandi. Kelajak avlod uchun yaratilayotgan bunday sharoitlar o'zbek xalqining nechog'li yurtparvar va yuksak insonparvarligidan dalolat beradi. Xalqimiz o'z farzandlarini o'z milliyligini yo'qotmagan holda butunjahon madaniyati va ilm ma'rifatini o'zlashtirishlarini va yurtimiz mavqeyini umumjahon davlatlari oldida yuksak ko'tarishini istaydi. Xususan, yurtimizda yaratilayotgan bunday sharoitlardan ajdodlarimiz qoldirgan merosni kelajak avlodga munosib yetkazish ham ko'zda tutilgan.

Bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirishdan iborat.

1Z.Muhammadjonova "Fortepianodachalishnio'rgatishuslubiyoti", - "YANGI NASHR", Toshkent-2006

Musiqa san'atida Fortepiano ijrochiligi eng ommalashgan turlardan biri sanaladi. Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bo'lishi barchaga ma'lum. Bugungi kunda dunyoning barchaxalqlari orasida eng ommalashgan umuminsoniy cholg'u sozlari ham mavjud. Bulardan biri – fortepiano cholg'usidir. Ushbu cholg'u uchun jahonning barcha taniqli kompozitorlari qatorida O'zbekiston kompozitorlari ham yorqin asarlar yaratdilar. Ular yosh ijrochilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda.²

Fortepiano musiqa cholg'u asbobi o'zining yoqimli ovozi, qulay ijrosi va keng imkoniyati yuzasidan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Bolalar musiqa va san'at maktabiga ilk qadam qo'yan bolalarning juda ko'p foizi aynan shu cholg' unichalishga va o'rganishga katta qiziqish bildirishi gapimizning yaqqol isbotidir.

Bolalar musiqa va san'at maktabiga ilk bor qadam qo'yan o'quvchilarning musiqa sohasining qaysidir bir yo'naliishiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellectual qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi pedagoglarning muhim vazifalaridandir. Dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda o'quvchining kelajakda kamolotga yetishish yo'li, uning ma'lumoti, aqliy salohiyati va tarbiyasi ham amalga oshib boradi. Dars mashg'ulotlari mobaynida o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini o'quvchiga tushunarli yetkazib beradi, o'quvchi esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lib boradi.

Avvallari o'qituvchilar musiqiy ta'limni nota yozuvini tushuntirishdan boshlar edilar. Yetarli darajadagi musiqiy taasurotga ega bo'lмаган, cholg'uning sadolanishini tinglashga o'рганмаган bola ilk musiqiy savodlarni o'zlashtirishga qiynalaredi. Shu boisdan bunday ta'lim jarayoni bolaning musiqani sevishi va o'rganishga bo'lgan qiziqishini aksar hollarda so'ndirardi. Bunday holatlarni oldini olish uchun o'qituvchi cholg'u asbobida birorta yoqimli kuy ijro etib berishi yoki cholg'u konsertidan videolavhalar ko'rsatishi kerak bo'ladi. Keyin esa, bolaning eshitish qobiliyatini, ritmni his qilishini tekshiruvdan o'tkaziladi. Bilamizki,

2DildoraDjamolova “Fortepiano”, - “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2018 musiqaning har qanday yo’nalishi uchun bu qobiliyatlar juda muhimdir. O’quvchida bunday qobiliyatlar bor yoki yo’qligini tekshirishning bir necha usullari mavjud. Ulardan biri quyidagicha, o’qituvchi stol yuzasiga qalam bilan qisqa ritmik usuilni bajarib ko’rsatadi, o’quvchi avvalo, qalam necha marotaba stolga urilganligini sanab aniqlashi, keyin esa xuddi shu ritmik usulni takrorlab bajarib ko’rsatishi kerak bo’ladi. Bu test o’quvchining musiqa sohasini qanchalik tez va puxta o’zlashtira olishini belgilaydi. Har doim ham o’quvchilar birinchi martadayoq bu vazifalarni a’lo darajada bajara olmasliklari mumkin. Bu bolaning musiqani o’rganishga layoqatsiz ekanligini bildirmaydi. Cholg’uga kuchli qiziqish bildirayotgan bolada yuqorida ta’kidlangan qobiliyatlarni mashg’ulotlar davomida yuzaga keltirish va rivojlantirish o’qituvchi mutaxasisning pedagogic mahoratiga bog’liqdir.

Mashg’ulot paytida o’qishni va yozishni hali bilmaydigan yoki buni yaqindagina o’rgangan bolada musiqa haqida tasavvur uyg’otish uchun har xil misollar keltirib tushuncha beriladi. O’quvchining dastlabki mashg’ulotlari mobaynida cholg’u tuzilmasi bilan birgalikda klaviaturalarni ko’rsatish, quyi, o’rta va yuqori registrlarning yangrash xarakterlarini chalib namoyish etib berish,o’quvchining turli balandlikdagi tovushlarni eshitishini va ularni bir- birlaridan farqlashga harakat qilishini ta’minalash zarur. Cholg’u ovozini tabiat hodisalari ovoziga, hayvonlar ovozlariga, misol uchun qalin, yo’g’on tovushlarni ayiq ovoziga, momaqaldiroq gumburlashiga,o’rtacha mayin ohanglarni odamlar qadam tovushiga, juda ingichka va nozik tovushlarni qushlar

ovozi, suv shildirashiga taqqoslab chalib ko’rsatilsa o’quvchining tovushlarni farqlashi osonlashadi va mashg’ulotga yanada qiziqlishi kuchayadi. Shu tartibda musiqa savodi bosqichma-bosqich oshirilib boriladi.O’qitish sifati o’quvchilarni qobiliyati va aqliy salohiyatiga qarab asarlar tanlab, ularda bori mkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Z.Muhammadjonova ‘Fortepianoda chalishni o’rgatish uslubiyoti’, - ‘Yangi nashr’, Toshkent-2006;
2. Dildora Djamolova ‘Fortepiano’, - ‘Musiqa’ nashriyoti, Toshkent-2018;
3. R.Qodirov ‘Musiqa pedagogikasi’, - Toshkent-2018;
4. G. Sharipova, G’. Najmetdinov, Z.Xodjayeva ‘Musiqa o’qitish metodikasi va mакtab repertuari’ Andijon - 2020;
5. G. M. Sharipova ‘Musiqa va uni o’qitish metodikasi’, ‘Turon-iqbol’ Toshkent - 2013.